

Psixolog bilan uchrashuv

"Yer resurslarini boshqarish" fakulteti ma'ruzalar zalida 20-noyabr kuni 1 - kurs talabalarini institut psixologi faoliyati bilan tanishtirish va targ'ibot qilish maqsadida uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvni ERB fakulteti dekani Sh.Narbaev o'z kirish so'zi bilan ochib, so'z navbatini institut psixologiga berdi. Institut psixologi Muhayyo Kamolxonovna Muxamedova talabalarga "Institut psixologining faoliyati" mavzusida taqdimot qildi va psixolog mutaxassisining psixiatr va psixoterapevtdan farqi haqida talabalarga ma'lumot berdi. Shu bilan birga institut psixologining institutda olib boradigan faoliyati turlari bilan tanishtirib o'tdi. Uchrashuvda tanishuv treningi va "Rasmli test" orqali talabalarning xarakter xususiyatini aniqlash testi o'tkazildi. Tadbirda psixologning inson hayotidagi tutgan o'rni haqida YeRB fakulteti yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova va Z. Hafizovalar o'z fikrlarini bildirib o'tishdi. Yig'ilish so'ngida talabalar institut psixologiga o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi. "Institut psixologi faoliyati" to'g'risidagi varaqalar tarqatildi va qizg'in tarzda tadbir o'z yakuniga yetdi.



TIQXMMI matbuot xizmati